

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«MENEJMENT» kafedrası

Qo'lyozma huquqida

UDK 658.01:631(575.1)

Baratov Sirojjon G'ayratulla o'g'li

**Mavzu: Qishloq ho'jalik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga
olib chiqish strategiyalarini ishlab chiqish**

70411201 - "Menejment" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

dissertatsiya


Ilmiy rahbar: Prof. Yo'ldoshev N.Q.

Toshkent -2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki
himoyadan o'tgan.


17-sonli bayonnoma "22" may 2023 y.

Kafedra mudiri: **Yo'ldoshev N.Q.**


imzo


22.05.2023
sana

Ilmiy rahbar: **Yo'ldoshev N.Q.**


imzo

18.05.2023
sana

Talaba: **Baratov S.G'.**


imzo

19.05.2023
sana

ANNOTATSIYA

Tadqiqotda o'z mahsulotlarini jahon bozorlariga eksport qilayotgan ishlab chiqaruvchilar oldida turgan muhim vazifalardan biri bu mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini baholash va sifatini aniqlashdan iborat.

Dunyoning deyarli barcha mamlakatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari importini ham, eksportini ham faol tartibga soladi, ammo bozordagi keskin qarama-qarshiliklar tufayli bu jarayon juda ziddiyatli. Ular ishlab chiqarish sharoitlarining o'zgarishi, jahon hamjamiyatining oziq-ovqat xavfsizligi holatiga ye'tiborining kuchayishi, foydalanilayotgan resurslar samaradorligi darajasining o'zgarishi va raqobatning kuchayishi bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha O'zbekiston strategiyasini ishlab chiqish masalasi dolzarbdir. Bu muammo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning umumiy mavzusi bilan chambarchas bog'liq, ammo u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan, xorijiy mamlakatlar tajribasi qiziq. Qishloq xo'jaligi xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini tartibga solishning xorijiy amaliyotida jahon amaliyotida mavjud bo'lgan eksportni tartibga solishning deyarli barcha vositalarini tadqiqotda o'rganiladi qo'llaniladi.

Tadqiqotda strategik qarorlarning sifati, kompaniyani rivojlantirishning maqbul strategiyasini tanlash va tanlangan strategiyani amalga oshirishning samarali algoritmini ishlab chiqish korxonalarining salohiyatini ro'yobga chiqarish va foydani maksimal darajada oshirishni aniqlashdan iborat.

Tayanch iboralari: qishloq xo'jaligi, agrar soha, eksport, sanoat, strategiya.

ANNOTATION

In the study, the strength of the position of exporters in international markets is measured by the competitiveness of their products. Today, one of the important tasks faced by manufacturers who export their products to world markets is to assess the level of competitiveness and determine the quality of these products.

Almost all countries of the world actively regulate both import and export of agricultural products, but this process is very controversial due to sharp contradictions in the market. They are associated with changes in production conditions, increased attention of the world community to the state of food safety, changes in the level of efficiency of the resources used, and increased competition. The issue of developing Uzbekistan's strategy for exporting agricultural products is urgent. This problem is closely related to the general theme of the development of agricultural production, but it has its own characteristics. In this regard, the experience of foreign countries is interesting. In the foreign practice of regulating the export of agricultural raw materials and food products, almost all means of export regulation available in the world practice are studied and used in the research.

In research, the quality of strategic decisions, the selection of an optimal strategy for the development of the company and the development of an effective algorithm for the implementation of the selected strategy are to determine the realization of the potential of enterprises and the maximization of profits.

Key words: agriculture, agrarian sector, export, industry, strategy.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.. ..	10
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
1.4. Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.....	11
1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
2.1. "Qishloq ho'jalik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish strategiyalarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-nazariy qarashlarga sharh.....	13
2.2. Tadqiqot bilan boliq mahalliy normativ qonun - qoidalar sharhi.....	18
III BOB. METODOLOGIYA.....	22
3.1. Tadqiqot dizayni.....	22
3.2. Ma'lumot yig'ish jarayoni.....	22
3.3. Qo'llaniladigan tahlil usullari.....	22
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	39
4.1. "ORCHID-BEAUTY" mas'uliyati cheklangan jamiyatining umumiy tavsifi.....	39
4.2. "«ORCHID-BEAUTY» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati samaradorligini baholaydigan ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlili.....	46
4.3. «ORCHID-BEAUTY» mas'uliyati cheklangan jamiyatining raqobatchilik strategiyasini ishlab chiqish.....	50
4.4. «ORCHID-BEAUTY» mas'uliyati cheklangan jamiyatini xalqaro bozorga kirishini strategiyasini aniqlash.....	59
V BOB. XULOSA.....	64
5.1. Tadqiqotdan olingan xulosalar.....	64
5.2. Tadqiqotning asosiy takliflari va tavsiyalari.....	65
5.3. Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	68

I BOB. KIRISH

Globalashuv sharoitida jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i aholini oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, jahon aholisining oxirgi 20 yillikda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va extiyojlari o'rtacha yiliga 5-7 foizga o'sib bormoqda¹. Ushbu jarayonda Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Yaponiya va Isroil davlatlari tajribalarida tarmoqda ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish, ilg'or innovatsiyalarni joriy etish, tarmoqni iqtisodiy-statistik tadqiq etish orqali qabul qilingan davlat dasturlarini ijrosini ta'minlash, ularni tizimli shakllantirish, agrar sektorni klasterlash kabi zamonaviy shakllarda xo'jalik yuritish amalga oshirib kelinmoqda.

Jahon iqtisodiyotida olib borilayotgan tadqiqotlarda agrar sektorni iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, jahonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi aholi soni va ularning talablari o'sishidan orqada qolayotganligi mazkur masala o'z ilmiy yechimini topa olmayotganligini ko'rsatadi. Shu jihatdan ham agrar sektorni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ixtisoslashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish, ularning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni kompleks statistik tadqiq etish, raqobatbardoshligini ta'minlash yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

¹http://www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving_Productive_and_Export_Potential/un_uzb_Improving_Productive_%20and_Export%20Potential.pdf